

# "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Chirchiq kimyo industrial texnoparkida tadbirkorlar bilan uchrashdi

// 08.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-chirchiq-kimyo-industrial>



**"Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkida Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashrif buyurgan delegatsiyalar va tadbirkorlar ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.**



Tadbir doirasida "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi sohadagi investisiya imkoniyatlari, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish masalalari yuzasidan tadbirkorlar bilan fikr almashdi. **Suhbat chog'ida hududlarda zamonaviy sanoat maydonlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish hamda biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari muhokama qilindi.**



Shundan so'ng mehmonlar texnoparkda yaratilgan shart-sharoitlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda rezident korxonalarining faoliyati bilan tanishdilar.



Uchrashuv ishtirokchilari "Chirchiq" texnoparki tajribasi hududlarda yuqori qo'shimcha qiymatli sanoat loyihalarini rivojlantirish uchun muhim namuna bo'lib xizmat qilishini ta'kidladilar.



